

SIYOSIY JARAYONLARNI REJALASHTIRISH

Mirvaxobov O'rinboy Mirraxim o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada adabiyotlarda mavjud bo'lgan ,Reja' ,Rejalashtirish'va ,Jarayon 'tushunchalari o'rganiladi.Siyosiy jarayonlarni rejalashtirish turlari maqsadlari va vazifalari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Rejalashtirish, Siyosiy jarayon, Direktiv rejalashtirish,Indekativ rejalashtirish,Rejalashtirish turlariva xususiyatlari.*

Rejalashtirish bu-kelajakni oldindan belgilash,obyektni istalgan makon va zamondagi modeli faol tasvirini qurish hamda muayyan maqsadlarga erishish.

Siyosiy jarayonlarni rejalashtirish har doim aniq va me'yoriy ketma ketlikka tayangan va aniq muammolarni hal etishga qaratilgan bo'ladi. U

- a)Reja ko'rsatkichlaridan
- b)O'lchovni belgilovchi raqamli parametrlaridan
- d)Ijtimoiy, iqtisodiy,siyosiy sifat belgilaridan
- e)Xulosaviy qiyoslashlardan iborat bo'ladi

Siyosiy jarayon uning subyektlari va funksiyalarini turli shakllar vositasida ochib beradi.Siyosiy jarayonlarni o'ziga xos xususiyati shundaki u biror bir siyosatchi yoki lider ko'rsatmalari asosida emas siyosat subyektlarining faoliyati xulqi va manfaatlarini uyg'unlashuvini ifodalaydi. Siyosiy jarayon o'z talqiniga ko'ra:

- siyosiy hokimyatni egallash
- siyosiy manfaatlarni amalga oshirish
- siyosat subyektlarini hatti harakatlarini ifodalash
- siyosiy qarashlarni amalga oshirish kabimazmunlarda ifodalanadi.

Siyosiy jarayonlarni rejalashtirish 2turga direktiv va indekativ rejalashtirishga bo'linadi.

Direktiv rejalashtirish-majburiy bo'lgan rejalashtirish shakli bo'lib majburiy qaror va qonunlar orqali namoyon bo'ladi.Bu kabi rejalashtirish siyosat,mudofaa,ijtimoiy siyosat sohalariga qo'llaniladi.

Indekativ rejalashtirish-Direktiv rejalashtirishni aksi bo'lib u majburiy emas yo'naltiruvchi tavsiya etuvchi harakterda ega.Rejalashtirishning bu turi dunyoda ham mintaqalarda ham eng keng tarqalgan turidur. Har ikkala rejalashtirish turi strategik va taktik guruhlariga bo'linadi.

Rejalashtirish — milliy iqtisodiyotning turli darajalarida (mikrodarajada — korxonalar va ularning ayrim bo'linmalari, shuningdek, korxonalar guruhlari, tarmoklar, sektorlar va mintaqalar miqyosida; makrodarajada — mamlakatning butun iqtisodiyoti miqyosida) ijtimoiyiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish va boshqarish

shakllari. Joriy, qisqa muddatli (oylik, choraklik, yillik), o'rtta muddatli (5 yillik) va istiqboldagi — uzoq muddatli (10—15 yillik) Rejalashtirishga bo'linadi.

Sovet iqtisodiyotida xalq xo'jaligini markazlashtirilgan rejalashtirish xo'jalik mexanizmining asosiy bo'g'ini hisoblangan va direktiv, manzilli, barcha xo'jalik yurituv sub'yektlar uchun majburiy bo'lgan. Rejalar tizimi mamlakatni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning yagona xalq xo'jaligi rejasi, tarmoklar va mintaqalar rejalarini, shuningdek, korxonalar rejalarini o'z ichiga olgan. Rejalashtirishni davlat miqyosida maxsus organlar — SSSR Davlat plan (rejalashtirish) qo'mitasi va ittifoqdosh respublikalar Davlat plan qo'mitalari hamda ularning viloyat, tuman bo'linmalari ishlab chiqqan. 1928-yildan boshlab SSSRda xalq xo'jaligini rivojlantirishning 5 yillik rejalarini amaliyotga kiritilgan va bu tartib 1991-yilga qadar saqlanib keldi.

Siyosiy jarayonlarni rejalashtirishda rejalashtirilgan ko'rsatkichlar ham harakat yo'nalishlarida ham oraliq natijalari, sarflangan resurslar va natijani turlari va hajmini o'zida aks ettirishi talab etiladi

Siyosiy jarayonlarni rejalashtirish quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi

1. Mamlakatlarni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ustidan va siyosiy insitutlarni nazirat qilish funksiyasini bajaradi.

2. Mamlakatda ijtimoiy iqtisodiy hamda muayyan davrdagi holatini baxolash uchun

3. Mamlakatda rivojlanish tendensiyalarini baxolash uchun

4. Istalgan siyosiy jarayonlarni darajasini kelajakka pragnoz qilish va belgilangan maqsadlar uchun erishishga qaratilgan vositalarni safarbar etish uchun

Siyosatshonoslikda o'lchov bu usul bo'ib muayyan o'zaruvchilar orasida u yoki bu qiymatni olishga qaratilgan obektning aniq hosilasidir. Oddiy tilda aytganda aniqlik chegaralarini aniqlashdir. O'lchash 3 turga bo'linadi. Bular nominal, tartibli va intervalli o'lchash usullaridir.

Siyosiy jarayonlarni rejalashtirishni o'lchash usulida eng to'liq malumot beruvchi usul bu Intervalli o'lchash usulidir. Siyosiy jarayonni rejalashtirish turlari zamonaviy politalogiyada rejalashtirish jarayin 2 muxim xususiyati bilan farqlanadi, Bular Mazmuni va Namoyon bo'lishidir.

Davlatning rejalashtirish. faoliyatida davlat buyurtmalari , kontraktlar tizimi vositasida amalga oshiriladigan biron-bir tarmoqni rivojlantirishga doir umumiy va maxsus davlat dasturlari hamda loyihalari — dasturlar bo'yicha boshqarish markaziy o'rinni egallaydi. Mas, Fransiyada umummilliy 5 yillik rejalar aksariyat holatda tadqiqot harakteriga ega. Uning tarkibiy qismi sherik hamkorlar — tadbirkorlar, markaziy va mahalliy hokimiyat organlari, kasaba uyushmalari va boshqa jamoatchilik intlari tomonidan birgalikda moliyalashtirishni nazarda tutadigan loyihalardan iborat. Yaponiyada 5 yillik rejaning mohiyatini kelajak davrda mamlakatni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning konsepsiyasi tashkil etadi.

O'zbekistonda ham xukumat tomonidan Iqtisodiyot vazirligi va boshqa vazirliklar va idoralar ishtirokida strategik rejalashtirish tizimini barpo etish, shuningdek,

mamlakatni ijtimoiyiktisodiy rivojlantirishning 10—15 yilga mo'ljallangan uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, 2004—2006-yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi (2003), O'zbekiston Respublikasi aholisini 2010-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan ijtimoiy himoya tizimining yagona konsepsiyasi (1995) va boshqa o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqilgan. O'zbekistonda davlataksiyadorlik korxonalarining rejalari negizini davlat buyurtmasi tizimi tashkil etadi.

rejalashtirishning turlari orasida ijtimoiy rejalashtirish alohida ahamiyatga ega. Bunday rejalashtirish milliy iqtisodiyotning ijtimoiyiktisodiy samaradorligini oshirish, ijtimoiy jarayonlarni oqilona boshqarishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Bunday rejalashtirishda ijtimoiy sohani rivojlantirish va aholi turmush darajasi va sifatini tavsiflaydigan boshqa barcha ko'rsatkichlarni rejalashtirish nazarda tutiladi.

Siyosiy jarayonda reja tushunchasi alohida bo'limlardan iborat. Bular

-Individual

-Struktur funksional

-Tizimli ko'rsatkichlari

Rejalashtirish tushunchasini har sohada qo'llasak bo'ladi. Oddiy misol kundalik hayotimizda o'zimiz o'ylagan malum bir maqsad yo'lida rejalar tuzamiz, biz tuzgan rejalarimiz o'ylagan maqsadimizga tez va sifatli borishimizni kafolatlaydi albatta rejamiz kuchli va mukammal bo'lsa albatta Shunday ekan biz siyosatimizga bu termini mukammal darajada olib kirsak bizning siyosatimiz yuksaladi bu esa davlatimizning dunyo reytingida turgan o'rniga ta'sir etmay ilojisi yo'q.

FOYDALANILGAN ADABIYOYLAT:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi

2 <http://uz.wikipedia.org>

3 Mirzaahmedov Kamoliddin maruzalari